

Самарқанд қишлоқ хўжалик институти.

**5620500 – “Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштириш,
сақлаш ва уларни дастлабки қайта ишлаш технологияси ”**

битирувчиси

Равшанова Адолатнинг

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

МАВЗУ: “Ғаллани сақлаў ва қайта ишлаш

тизимини ишлаб чиқиш ”

илмий раҳбар, доцент

А.Х.Юсупов. Х.Тилавов.

САМАРҚАНД - 2012

KIRISH.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqdisodiy taraqqiyotida tegirmon sanoati oldida yuqori samarali uskunalarni qo'llash va ilg'or texnologiyadan foydalanib korxonalarning texnik darajasini oshirish mumkin.

Respublikamizda 1991 yilga nisbatan davlat ixtiyohlari uchun don xarid qilish 2003 yilda 17,4 marta, bug'doy tayyorlash esa 25,8 marta o'sdi. chunki, 2003 yilda davlat ehtiyojlari uchun hajmi 5025 ming tonna boshqoli don, shundan 24294 ming tonna bug'doy qabul qilinib olindi. Shunday murakkab sharoitda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekistonda don mustaqilligiga erishish masalasini dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qaydi va bu masalada kerakli chora-tadbirlarni ishlab chiqildi. Agrar soxada qullanilgan tug'ri tadbirlar, jumladan, yurtimizda fermerlik xarakatiga katta e'tibor qaratilishi kishilarda xususiy mulk tushunchalarining shakllanishiga olib keldi va bularning natijasi don yetishtirishda katta yutiqlarga erishildi. hozirgi kunda g'alla mustaqillikka erishdik va 6 million tonadann ziyod don yetishtirilmoqda.

Shu tariqa yillar davomida qo'llanilgan tadbirlar va sarflangan mehnat o'z samarasini berdi. O'zbekiston ming yillar oldingi g'allachilik ananalarini tikladi va bu sohada o'zining tarixiy kulminasiyasiga erishdi.

Yuqori samarali uskunalar bilan jihozlangan yangi un tortish zavodlari qurishning keng kulamli dasturni amalga oshirish, amalda qo'llanilayotgan korxonalarni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash va murakkab texnika va texnologiyani ishlab chiqarish tadbiq qilish uchun zamonaviy korxonalarni ishlata biladigan yuqori malakali mutahassislar kerak. Bunday mutahassislarni yetishtirishda davlat ta'lim tizimi salmoqli ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil O'zbekiston o'zi tanlagan tinchliksevarlik va barqaror taraqqiyot huquqiy davlat qurish yo'lida bosqichma-bosqich olg'a bormoqda. Xalq xo'jaligining barcha jabhalarida bozor iqtisodiyotiga o'tishga qaratilgan tub islohatlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiy islohatlarning daslabki bosqichida, eng avvalo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni isloh qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Qishloq xo'jaligini barqaror taraqqiyotiga berilayotgan e'tibor tufayli keyingi yillarda moddiy nematlar ishlab chiqarish salohiyatimizni saqlab qolish erishilayotir. Ayni paytda iqtisodiyotning agrar sektorida o'lgan imkoniyatlarimizni tulig'icha ishga tushira olganimizcha yo'q. O'tkazilayotgan iqtisodiy islohatlarning yakuni, barqarorligi va xalqimizning turmush faravonligi qishloqda islohatlarning qanchalik chuqur borishiga bog'liqdr. Respublikada agar munosabatlarni isloh qilish uchun qishloq xo'jalik korxonalarining tuzilmasini qaytadan tashkil etish qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishni yanada ko'paytirib borish uchun sharoit yaratishda samarali texnologik jarayonlarni hayotga tatbiq etish lozim.

O'tkazilayotgan islohotlarning ilk debochasi sifatida qishloqda agrar va iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asoslari barpo bo'layotganligi qishloq xo'jalik yuritish mexanizmini yangi asoslari shakllanayotganligini sohani boshqarish tamoyillari va tizimi o'zgarayotganligini ta'kidlash joizdir.

Qishloq xo'jaligini isloh qilishning asosiy maqsadi qishloqda xaqiqiy mulk egalarini shakllantirish yo'li bilan ularni mulkka, yerga va mehnatga munosabatini o'zgartirishdir. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov (1998) ta'kidlaganidiki, mulk masalasi xalq qilinmasdan turib mehnatni tashkil etishining har qanday mukammal tizimi ham samara bermaydi, muvaffaqiyat qozonmaydi. Bu holatdan chiqishning asosiy yo'li qishloqda paychilik munosabatlarini rivojlantirishdir. Qishloqda xaqiqiy mulk egalari

xo`jaliklarning turli xil shakllarini barpo etishini shulardan biri esa shirkat fermer va dehqon xo`jaliklarini rivojlantirish hamda foaliyatini qo`llab-quvvatlash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Buning uchun esa fermer (dehqon) xo`jaligi va shu xo`jalik tashkil qilingan yerda foaliyot ko`rsatayotgan xo`jaliklar shirkatlar o`rtasidagi o`zaro aloqalarni mustahkamlash borasida huquqiy zamin yaratish lozim. Shu maqsadda respublikamizda 1998-2000 yillardagi davrda qishloq xo`jaligida iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga qaratilgan dastur va qonunlar qabul qilindi.

Shuningdek, qishloq xo`jaligini rivojlantirish va isloh qilishning muhim yo`nalishidan biri ushbu sohasidagi ishlab chiqarishda band bo`lgan ortiqcha ishchilarni iqtisodiyotning boshqa sohalariga jalb etishdan iboratdir. Shu sababli qishloq joylarda zamonaviy texnologiyaga ega kichik korxonalarni ochishni ham zamonni o`zi taqazo etmoqda. Qishloq xo`jaligini isloh qilishni chuqurlashtirish qishloqda bozor munosabatlarini joriy qilishni muammolarini yechishga yangicha yondashuvini talab etadi. Qishloq xo`jalik korxonasini mahorat bilan boshqarish uchun yuqori malakali mutaxassislar talab qilinmoqda.

II. KORXONA QURILIS'HINI TEXNIK-IQTISODIY ASOSLAS'H.

2.1 Geografir koordinatalari.

loyihalanayotgan korxonani Samarqand viloyati Nurobod tumanida joylashtiramiz. Nurobod tumani 1975 yil 26 noyabrda tashkil topgan. Nurobod tumani shimoldan Pasdarg'om va Kattaqo'rg'on g'arbdan Paxtachi va sharqdan Samarqand tumani bilan chegaradosh. Relifi yassi tekislik bo'lib sharqdan g'arbga nishab yuzasi o'chlamchi davr cho'kindi jinslardan tashkil topgan. O'stki qismini Zarafshon va uning irmoqlari olib kelgan olluvial yotqiziqlar qoplab olgan. Bu yerda neogen davrigacha denyiz bo'lgan va alpfogetik jarayoni Zarafshon tog' tizmalarining g'arbiy uchi bilan band. Tuproq iqlim sharoitlari tuproqlari asosan bo'z tuproq, tog' etaklarida jigarrang va qo'ng'ir tog' o'rmon tuproqlari tarqalgan. Tuman hududining shimoliy cherasi bo'ylab Zarafshon daryosining tarmog'i va boshqa soylar o'tadi. Zarafshon tog'idan mayda soylar oqib tushadi, g'arbida yozda qurib qoladigan soylar bor. Tuman hududi orqali Darg'om kanali, eski anhor kanali o'tadi. Tuman iqlimi keskin kontinental lekin shimol, shimoliy sharq va sharq tomondan tog'lar bilan o'ralgani uchun qish iliqroq. Yanvarning o'rtacha harorati $-1,9^{\circ}\text{S}$ minimal temperaturasi -26°S , iyulniki $27,2$ maksimal harorat 44°S , yillik yog'ingarchilik 328 mm. yog'in asosan qish va bahorda yog'adi.

2.2.Qurulish materiallari.

Korxonani qurish uchun qurilish materiallaridan qum tosh karerdan keltiriladi g'isht esa tuman g'isht zavodidan keltiriladi, boshqa qurilish materiallari va temir biton konstruksiyalar Samarqand uy-joy qurilish kombinati va tuman biton tarmog'idan olinadi.

2.3.Elektr energiya ta'manoti.

elektr energiya bilan zavod tuman elektr ta'minot tarmog'idan ta'minlanadi.

2.4.Issiq suv va bug' ta'minoti.

Korxonaning issiq suv va bug'ga talabi katta, chunki asosiy ishlar ya'ni texnologik jarayonlar issiq suv va bug' bilan olib boriladi.

Korxona tuman markaziy isinish bug' qozon sexiga yaqin bo'lgani uchun korxonani issiq suv va bug'ga talabini qondirish uchun zavod hududida bug' qozon sexi nafaqat zavodni issiq suv va bug' bilan ta'minlaydi balki atrofda joylashgan uy-joylar va maishiy xizmat ko'rsatish binolari, bolalar bog'chalar va hakazolarni isitishni o'z zimmasiga oladi. Bu qozon sexni yonilg'isi bo'lib tabiiy gaz hisoblanadi. Chunki jamoa xo'jalik hududidan o'tkazilgan magistral gaz quvurlaridan gaz keltiriladi.

2.5. Suv ta'minoti.

Suv ta'minoti tuman qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi bilan kelishilgan holda kerakli hajmdagi suv debend hisoblanib chiqariladi va artizan quduqlar qazilib bu quduqdan olingan suv tuman sanitariya epidemiya stansiyasi tomonidan laboratoriya ko'rigidan o'tkazib istemol va texnik maqsadlarga yaroqli bo'lib hisoblansa va suvdan foydalanishga ruhsat berilsa quduq suvidan foydalaniladi. Zavod ishlatilgan suvni ya'ni oqava suvlarni filterlab ikkinchi marotaba texnik maqsadlarga ishlatiladi. Buning uchun tozalovchi filterlovchi inshootlar quriladi. Bu esa suvni tejashga olib keladi va mahsulot tan narxini pasaytiradi. Texnik maqsadlarga yaroqsiz suv esa tuman atrof muhitni muhofaza qilish va ekologiya qo'mitasi sanitariya epedemalogiya stansiyasi sug'orish maydonlariga yoki daryo soylarga oqizilib yuboriladi.

2.6.Transport aloqalar.

Zavod bilan transport aloqalar asosan aftomabil transporti va temir yo'l orqali olib boriladi. Qurish maydoniga yaqin joydagi temir yo'l o'tkazilgan ana shu temir yo'ldan zavod hududigacha temir yo'l tarmog'i o'tkaziladi.

Asosiy xom ashyo va boshqa tashkiliy ishlar avtotransport orqali olib borilgani uchun zavodgacha yo'l qurilib boriladi.

2.7.Ishchi kuchi ta'minoti.

Loyihalanayotgan zavod ish kuchi bilan jamoa xo'jaligi aholisidan ta'minlanadi. Ishchi mutahasislar bilan esa oliy va qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejini bitiruvchilari tomonidan ta'minlanadi.

2.8.Qurilish maydonini tanlash.

Qurilish maydonini tanlashda maydon relefi geologik tarkibi shamollarni yo'nalishlari asosiy komunikasiyalarni joylanishi qurilishlar va ko'kalamzorlar daraxtzorlarni e'tiborga olib tanlanadi. Qurilish maydoni qishloq xo'jaligigi yaroqsiz yerlarda joylanib yashash joylaridan sanoat kolxonalaridan yonuvchi va portlovchi materiallardan saqlanadigan omborlardan, aeradromlardan uzoqroq masofadan tanlanadi. Qurilish maydonida qurilish ishlari tuman hokimiyati energiya ta'minoti yo'llar boshqarmasi yong'inni o'chirish inespeksiyasi va boshqa aloqador organlar bilan kelishilib amalga oshiriladi. Tumanda 2060 ga maydonga g'alla ekiladi va gektaridan o'rtacha 20 sentnerdan olganda 40 ming tonnadan oshadi.

3. TEXNALOGIK QISM.

3.1. XOM-ASHYO TAVSIFI.

Respublikamizda serhosil kasalliklarga zararkunandalarga yotib qolishiga tabiatning boshqa noqulay omillarga chidamli don sifati yuqori bug'doy va arpaning sug'ariladigan yerlarda ishiga muljallanib davlat reyestridan o'tgan hamda istiqbolli intensiv tipdagi navlari ekilmoqda. Navlarni davlat reyestridan o'tkazishdan oldin ular davlat nav sinash tajriba stansiyalarida yoki o'chastkalarda yagona uslub bo'yicha sinaladi hamda oldindan ekib kelinayotgan navlardan hosildorlik va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha ustunlik qilsa nav sinalgan tuproq-iqlim mintaqasida ekish uchun Davlat reyestridan o'kaziladi. Xo'jaliklarda faqat Davlat reyestridan o'tgan yoki istiqbolli navlar ekilishi lozim.

ekiliyotgan navlar suvlik yoki lalmida ekish uchun Davlat reyestridan o'tkazilganligi qattiq yoki yumshoq bug'doyligi arpani oziqa uchun yoki pivabop ekanligi yumshoq bug'doy navlarni don sifatiga qarab kuchli yoki noyobligi va boshqa ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Sababi ularni qaysi maqsadlarda ishlatilishi sifatiga qarab xarid narxlari ham har xil bo'ladi. Bu ko'rsatkichlar boshqali don ekinlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligiga bevosita tasir ko'rsatadi.

Boshqali don ekinlarining navlarini tumanda yoki aholida tuproq-iqlimi mintaqasida joylashtirishda uning plastikligi suvga talabchanligi o'g'itlarga tasirchanligi yotib qolishiga chidamligi singari xususiyatlari hisobga olinadi. hozirgi paytda Respublikamiz viloyotlarida yumshoq kuzgi bug'doyning Ulug'bek-600, Sanzar-8,Sanzar-4, Yuna, Skifyanka, Spartanka, Yonbosh, Marjon, qattiq bug'doyning Makuz-3, Aleksandrovka, Baxt,arpaning Temur,

Maroqand, Oyqor, Zafar navlari ekilmoqda. Bu navlar Respublikamizning boshqa viloyatlarida ham keng tarqalmoqda.

Ulug'bek-600 kuzgi yumshoq bug'doy. Tur xili-lyutessens.

eritrospermum 200-994 x Kormoran durag'ay kombinasiyasidan yakka tanlash yo'li bilan yaratilgan. Sovuqqa qurg'oqchilikka chidamli. Doni yirik 1000 don vazni 45-48 gr. Bo'yi 105-115 sm. Tegirmonbop; noni yaxshi yopiladi. Don tarkibida oqsil 16-17 %, kleykovina 30-35 %, almashtirib bo'lmaydigan aminokislota-lizin-3 % hosildorligi 80-90 s/ga. Optimal ekish muddati oktyabrning birinchi, ikkinchi o'n kunliklari. ekish meyori gektoriga 4-4,5 mln. Unuvchan urug' Sug'orishlarga madanli o'g'itlarga juda tasirchan.

Respublikamizning sug'oriladigan yerlar uchun 1998 yilda Davlat reyestirida o'tgan. Sanzar-8, yumshoq bug'doy biologik kuzgi. Tur xili-grekum. Boshog'i oqboshog'cha kipiklari to'ksiz, qiltiqli doni oq Qurg'oqchilikka issiqqa kasalliklarga, sovuqqa chidamli. Boshog'dagi donlar soni 60-110 donagacha. 1000 don vazni 41-44 g. Donida oqsil 14-15 % kleykovina 28-32 %, sug'orilishga o'g'itlashga tasirchan. hosildorligi 60-80 s/ga. ekish meyori sentyabrning oxirgi o'n kunligida 3-3,5 mln, oktyabrda 4-4,5 mln. Unuvchan urug'ga. Don sifatiga ko'ra noyob bug'doy hisoblanadi. Nav qora chang kasalligiga chidamsiz.

Sherdor-kuzgi yumshoq bug'doy. Navi ferigineum X.S.N.3-4 x Avrora duragay kombinasiyasidan yakka tanlash yo'li bilan yaratilgan. Boshog'i oq tuksiz, qiltiqli, doni qizil. Bo'yi 90-100 sm. yotib-qolishiga, kasalliklariga, sovuqqa yuqori haroratga qurg'oqchilikka chidamli doni tarkibida oqsil 17-18 %.

hosildorligi 75-85 s/ga. eng maqul ekish muddati oktyabr, ekish meyori 4,0-5,0 mln. urug'ga.

Respublikamizning sug'oriladigan yerlari uchun 1990 yildan Davlat reyestrndan o'tgan.

Yonbosh. Kuzgi yumshoq bug'doy. Boshog'i doni qizil, qitiqli. 1000 dona don vazni 41-43 g. tukilishga sovuqa, kasalliklarga chidamli, o'simlik bo'yi 105-115 sm ekish sentabrda 3-3,5, sentabr oxiri oktyabrda 4-4,5,mln. urug'-ga .

Marjon. Kuzgi yumshoq bug'doy. Boshog'I oq, qiltiqli doni qizil 1000 dona don bazni 46-48gr.Urta pishar soviqa,kasalikka chidamli.Usimlik buyi 115-120sm.Yekish muddati oktabirning birinchi un kuligi.Xosildorligi 65-70s/ga.

Sanzar-4 Duvarak, yumshoq bug'doy Boshog'i, doni qizil, qiltiqli. 1000 dona don vazni 41-45g. o'simlik bo'yi 95-110 sm/ ertapishar hosildorligi 50-60 s/ga. ekish muddati oktyabrning birinchi un kunligi normasi 4,0mln. Urug'ga. Kuzda va bahorda ekishga yaroqli.

Spartanka. Yumshoq, kuzgi bug'doy. Boshog'i qiltiqsiz oq, doni qizil. Spartanka navidan yakka tanlash yo'li bilan tayyorlangan. Yotib qolishiga, to'kilishiga, sovuqa, kasalliklarga chidamli. Kuchli bug'doy. Poyasi 80-90 sm/ o'rtapishar 1000 dona don vazni 40-42 gr. Sug'orishlar va o'g'tlarga talabchan.

Yuna. Yumshoq, kuzgi bug'doy. Boshog'I qiltiqsiz. Don sifatiga ko'ra kuchli bug'diy. Bo'yi 65-95 sm. Sovuqa, kasalliklarga, yotib qolishga chidamli, serhosil o'rtapishar.

Bezostaya-1 Kuzgi yumshoq bug'doy. Boshog'I oq, qiltiqsiz, doni qizil, 1000 don vazni 40-45 g. ekish muddati sentyabrning boshida, oktyabrning, birinchi o'n kunligigacha. Kassalliklarga, sovuqa, yotib qolishga chidamli. Kuchli bug'doy. hosildorligi 55-65 s/ga.

Spartanka. Yumshoq, kuzgi bug'doy. O'rtapishar poyasining bo'yi 80-85 sm. Sovuqa, kasalliklarga, yotib qolishga chidamli. Don sifati kuchli. 1000 dona don vazni 39-41 g. o'g'itga va suvga juda talabchan.

Intensiv. Yumshoq, bahori navi. Boshog'i, doni qizil, qiltiqli, 1000 don vazni 40-43 g. o'simlik bo'yi 100-115 sm. Don sifati qimmatli. ekish muddati oktyabrning ikkinchi o'n kunligi. ekish noramasi 4mln. urug'ga erta ekilsa naychalash-boshog'lash fazasiga qish tushguncha o'tib ketishi mumkin.

Unumli bug'doy. Yumshoq, duvarak bug'doy. Boshog'i qizil qiltiqli, doni oq. Qimmatli nav. 1000 dona don vazni 39-41 g. Don tarkibida oqsil 12,4 klenkovina 26,3%. Tegirmon tortish, non yopish sifatleri yaxshi. Yotib qolishga, qurg'oqchlikka, kasalliklarga chidamli. hosildorligi 70-80 s/ga. ekish muddati oktyabrning ikkinchi un kunligi. ekish meyorl 4,5mln. urug'ga.

Sete-Serros-66. Yumshoq bahori bug'doy. Boshog'i qizil, qiltiqli doni oq. 1000 dona don vazni 35-40g. Don tarkibida oqsil 12-13, kliykovina 26-28 %. Yotib qolishiga, qurg'oqchilikga chidamli. Sariq zang kasalligiga chidamsiz. ayniqsa sernam issiq bahor oylarida. hosildorligi 75-80 s/ga. ekish muddati oktyabrning ikkinchi o'n kunligi. ekish meyorl 4,5mln. urug'ga.

Aliksandirovka. Qattiq duvarak bug'doy, boshog'i oq, tukli, doni yirik, boshog'chalari zich qiltiqli. 1000 don vazni 40-47 g. oqsil miqdori 13-14, 5%, kliykovina 25-33 %, shishasimonligi 70-80, hosildorligi 55-60 s/ga. Makaron sifati yaxshi. Kleykovina rangi tillasimon, ekish meyorl gektoriga 4-5mln. Urug'ga. ekish muddati Samarqand viloyatida oktyabr oyining birinchi, ikkinchi o'n kunligi.

Baxt. Qattiq bug'doy, duvarak nav. Boshog'i qiltiqli doni oq yirik oqsil miqdori 14-15 %, kleykovina 30-32 %, shishasionligi 70-75 %, yotib qolishiga chidamli. 1000 don vazni 44-45 g. ekish meyorl 4-5 mln. urug'ga. ekish muddati oktyabrning ikkinchi o'n kunligi janubiy viloyatlarda uchinchi.

Makuz-3. Qattiq, duvarak bug'doy. Boshog'i doni oq, 1000 don vazni 40-50 g. Donida oqsil miqdori 14-15 %, kleykovina 26-32 %. Shishasimonligi 80-85 % o`rtapishar sovuqqa, qurg'oqchilikka yotib qolishiga chidamli. O`simlik bo`yi 95-100 sm. ekish muddati-oktyabr, ekish normasi 4,0 mln/ga.

Temur-hashaki arpa. Tur xili-Pallidium, boshog'i olti qatorli, poyasi sarg'ish. Nav Pallidium 20 x Ajer navlarini durag'aylash ,yakka tanlash yo`li bilan yaratilgan.

Duvarak. Doni uzunchoq yirik 1000 donning vazni 42-45 g. Bo`yi 100-110 sm poyasi faqat yotib qolishiga kasalliklarga hashoratlarga chidamli. ertapishar. Yem-xashak maqsadida foydalanish uchun tavsiya etiladi. Don tarkibida oqsil 13-14 %. hosildorligi sug'ariladigan yerlarda 80-90 s/ga.

Respublikamizning sug'oriladigan yerlar uchun 1996-yil Davlat reyestrindan o`tgan. ekish muddati oktyabr ekish meyori 3,5-4,0 mln urug' - ga.

Maroqanda navi. Tur xili-nutans Kuzgi navi. Navi Nutans 300 x Sonyanavlarini durag'aylash yakka talash yo`li bilan yaratilgan. Boshog'i ikki qatorli poyasi sarg'ish. Doni bochkasimon. 1000 don vazni 40-45 g.

Bo`yi 100-110sm. Tezpishar qurg'oqchilikka, yotib qolishiga kasalliklarga zararkunandalarga chidamli. Sovuqqa bardoshli qishga chidamli. Pivo sanoatida foydalanish uchun tafsia etiladi. Doni tarkibida oqsil 11-11,5 % ekistirakli quruq moddalar 80 %. hosildirligi 60-70 s/ga. O`zbekistanning shimoliy mintaqalarida sug'oriladigan yerlarda ekish uchun tavsiya etiladi. ekish meyori gektariga 3-3,5 mln urug'-ga. ekish muddati 10-20 oktyabr.

Zafar. Bahori navi Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarda tumanlashtirilgan Don yirik 1000 donasining og'irligi 48-54 g.

Qarshi. Bahori navi sug'ariladigan va shartli sug'ariladigan maydonlarda tumanlashtirilgan. O`rtapishar qurg'oqchilikka issiqqa chidamli

yotib qolishga moyil sovuqa chidamsiz, 1000 don vazni 50-55 g. hosildorligi 45-50 s/ga.

Oyqor. Duvarak nav. Sovuqqa, yotib qolishga chidamli. Doni yirik. hosildorligi 50-60 s/ga. Bahorda kuzda ekish mumkin.

Respublikamizda ekilayotgan intensiv navlar sug'orishga o'g'itlarga ekin parvarishga juda talabchan. Meniral o'g'itlarini normadagidan kam berish o'sish davrida yetarli miqdor nam bilan taminlanmaslik ekish muddati va normasiga roya qilmaslik hosildorlikni 20-25 s/ga kamayoshiga olib keladi. Suv tanqis mintaqalarda kuzda ekish kechikgan holarda bug'doyni ertapishar bahori va duvarak navlari; Sanzar - 4 Intensiv Sete – Serros - 66. Unumli bug'doy arpaning Qarshi Bolg'ali navlari ekilishi maqsadga muvofiq.

Sug'oriladigan yerlarda kuzgi bug'doydan yuqori hosil olishning muhim omillaridan biri serhosil kasalliklarga zararkunandalarga chidamli o'g'itlash hamda sug'origa talabchan don sifati yo'qori intensiv tipdagi navlarni ekishdir.

Tumanlashtirilgan (rayonlashtirilgan) hamda istiqboli kuzgi bug'doy navlarini ekish maqsadga muvofiqdir. Jamoa xo'jaliklarida katta maydonlarda 2-3 ta biologik jihatdan farq qiluvchi navlarni ekish mavjud texnikadan to'g'ri foydalanishga harajatlarni kamaytirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga imkon beradi. Bunda biologik kuzgi duvarak bahori bug'doy navlari bilan bir qatorda arpa ham ekilishi lozim. Boshqqli don ekinlari uchun ajratilgan maydonni 75 % o'rta va kechgi bug'doy navlari 25 % arpa ekilishi hosil yig'ishtirilgan maydonlardan samarali foydalanishga takroriy erkinlarini o'z vaqtida ekib yo'qori hosil yetishtirishga hamda mavjud texnika resuslaridan samarali foydalanishga hosil nobudgarchligini kamaytirishga imkon beradi.

3.2. BOSHOQLI DON EKINLARINING RIVOJLANISH FAZALARI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kuzgi g'alla ekinlarining urug'lari unub chiqishi boshlanish uchun eng kam harorat $1-2^{\circ}\text{C}$. o'nib chiqishi uchun optimal harorat $18-25^{\circ}\text{C}$. Buday haroratda urug'lar juda tez unib chiqadi. $40-45^{\circ}\text{C}$ esa urug'lar unib chiqishi to'xtaydi. Urug'dan bir tekis qiyg'os qisqa vaqt davomida unib chiqish harorati namlikka havo bilan taminlanishiga tuproqning mexanik tarkibi va boshqa omillarga bog'liq.

O'zbekistonga shu jumladan Zarafshon vodiysida yozning ikkinchi yarimida kuzning birinchi yarimidagi yog'ingarchiliklar tuproq suv balansining o'zgartirishda katta rol o'ynamaydi. Avgust, Sentyabr, Oktyabr oylarida otmasfera yog'ingarchiliklar juda kam miqdorda yog'adi va ular tez bug'lanib ketadi. Yog'ingarchiliklar miqdori 20 mm ko'p bo'lishi noyabr oyida ko'zatiladi. Urug'larni tez o'ndirib olish uchun tuproqdagi namlik sentyabr, oktyabr oylari yetarli emas.

Donga suvning yutilish so'lish kaefsntlari tuproq namligi 1-2 % yo'qori bo'lganda boshlanadi. Bug'doy doni unib chiqishi uchun o'z og'irligiga nisbatan 50-56 % namlikni yo'tadi.

Urug'larni unib chiqishi uchun o'rtacha sutkalik harorat yig'indisi $116-139^{\circ}\text{C}$ bo'lishi lozim. Urug'lar ekilgandan keyin tuprodagi o'rtacha sutkali harorat $12,5^{\circ}\text{C}$ bo'lsa urug'lar 10 kunda yoki 20°C bo'lsa 6-7 kunda unib chiqadi. Namlik yetishmasa ekish unib chiqish davri 20-60 kungacha chuzilishi mumkin.

Bunday hollarda o'rtacha sutkalik ijobiy harorat yig'indisiga bo'lgan talab $250-350^{\circ}\text{C}$ oshishi mumkin.

Sug'oriladigan yerlarda kuzgi g'alla ekinlarining ekish-unib chiqish davr haroratiga namlikka va boshqa omillarga bog'liq holda 6 kundan 50 kungacha yoki lalimikorlikda undan ortiq bo'lishi mumkin.

To'planish fazasi-pastki barik qultig'idan birinchi yon navda hosil bo'lishi bilan aniqlanadi. Dastlab yon novda bark ko'rinishida bo'lib uning asosida mo'rta holidagi bo'lajak poya joylashgan. To'planish fazasida o'simlik qishlashi eng yuqori bo'ladi. Sug'oriladiga yerlarda o'simlikni to'rtinchi bark hosil bo'lishida to'planish tuguni shakillana boshlaydi. Samarqand viloyatining sug'oriladigan yerlarda o'tkazilgan tajribalarda kuzgi bug'doy erta optimal muddalarda ekilganda to'planish to'la unib chiqishdan keyin 10-18 kun o'tganda kuzatiladi Kechgi muddatlarda unib chiqish-to'planish davri o'zayadi va kuzda boshlanib bahorda davom etadi. Sug'oriladigan yerlarda yetarli namlik harorat oziq moddalar bo'lganda erta va optemal muddatda ekilgan o'simlik 3-7 novda hosil qiladi. Kuz davrida 3-5 novda hosil qilgan o'simliklarning qishlab chiqishi eng yuqori bo'ladi. O'simlikni jadal o'sishi va to'planishi uchun 250-350 °C sutkalik ijobiy harorat talab qilinadi.

Unib chiqishto'planishining boshlanish davrida kuzgi bug'doy sutkalik ijobiy harorat yig'indisi 200-240 °C bo'lishini talab qiladi. To'planish tuguni joylashgan tuproq qatlamida namlik yetishmaslik yon navdalar hosil bo'lishi keskin kamayishi yoki to'la tugashi mumkin . To'planish tugunidan yon navdalar hosil bo'lishi va o'sish bilan birgalikda bug'in ildizlari (ikkilamchi) tizimi hosil bo'ladi. Bug'un ildizlari to'planish tugindan hosil bo'ladi. Dala sharoitida kuzgi bug'doy optimal muddatlar ekilganda kuzgi bug'doy to'planish o'rtacha sutiklar harorat 8-17°C bo'lishi to'g'ri keladi. harorat 2-4 °C bo'lganda to'planish juda sekin o'tadi, 5 °C oshganda tezlashadi. haroratning ortib borishi bilan to'planish jaddaligi va ikkilamchi ildiz tizimi hosil bo'lish kuchayadi. To'planish davrida tuproqdagi namlik eng kam dala sig'imining 80 % kam bo'lmasligi lozim. Tuproqdagi namlk yetishmasligi

yoki suv havo oziqlanish rejimini bo'zadigan ortiqcha namlik to'planish jadalligini kamaytiradi.

Naychalash fazasi.-bargini ichdagi poyi bug'ining tuproq yuzasida 2-3 sm kutarilishi bilan aniqlanadi. Oldin bosh poya malum vaqt o'tgandan keyin yon navdalar o'sishini boshlaydi. Bu fazani tugashi uchun 11°C haroratda 35-40 kun 20-22 * C bo'lganda 18-20 kun kerak bo'ladi. Naychalash fazasining boshlanishidan boshloqlash fazasigacha 25-30 kun o'tadi. Bu davr salqin yomg'irli havoda 20-25 kun davom etishi mumkin. Bu fazani o'tish uchun o'rtacha sutkalik harorat yi'gindisi 390-460 *C talab qilinadi. Namlik va oziqlar moddalarning yetishmasligi o'sish jarayonini sekinlashtiradi. Bu fazada namlik yetarli bo'lishi yer ustki massasini ko'p to'planishini taminlaydi. O'simlikni o'sishi rivojlanishi uchun eng qo'lay sharoit tuproqdagi namlik eng kam dala sig'iminining 80 % kam bo'lmaganda yaratiladi.

Boshloqlash-poydagi oxirgi barkdan boshloqning uchdan bir qismi chiqqanda belgilanadi. Oxirgi barkdan boshloq qancha baland joylashsa bu tuproqni yetarli namlik bilan taminlanganligini ko'rsatadi. Bu davrda havoni quruq va issiq bo'lishi tuproqda namlik yetishmasligi generativ organlarni shakillanishini bo'zishga va boshqa to'la rivojlanmagan don hosil qilmaydigan (strell gullarni hosil bo'lishiga olib keladi). Boshloqlash Samarqand viloyati sharoitida aprel oxiri may boshlarida janubiy viloyatlarda aprelning birinchi ikkinchi o'n kunligiga to'g'ri keladi. Dastlab bosh poya 1-3 kundan keyin yon navdalar boshloq chiqadi.

Gullash va urug'lanish. Gullash bug'doy boshloq chiqargandan keyin 2-3 kun ayrim xollarda 4-5 kun o'tgach boshlanadi va 3-6 kun davom etadi. Arpadan gullash boshloq chiqarguncha boshlanadi. Qurg'oqchilik sharoitida va harorat yo'qori bo'lganda bu jarayon erta va tez o'tadi. O'simlik ertalabgi va kechiki soatlarda jadal gullaydi. Kechasi bu jarayon sekinlashadi.

Gullash boshqning o`rtasidan boshlab pastga va yuqoriga tarqalladi. eng yirik urug`lik sifati yuqori donalar boshqning o`rta qismida hosil bo`ladi. Gullash va urug`lanish harorat 20-25 \*C. havoda nisbiy namlikning kam bo`lishi va haroratning yuqori bo`lishi changchalari va o`rgichi tumshiqchalarining qurib qolishiga hamda boshqda urug`lanmagan gullarning ko`p bo`lishiga sabab bo`ladi. O`zbekiston sharoitida bu hol bir vaqt keskin sodir bo`lganda yani havo qurg`oqchanligi (“zapal”)va tuproq qurg`oqchiligi (“zaxvat”) (“olabulut”) tasiri deb baholanadi. Buday hollarda boshqda donlar soni gullar sonidan sezilarli darajada kam bo`ldi. Bu fazani meyoridan o`tishi uchun tuproqdagi namlik eng kam dala nam sig`imining (YeKDNS) 75-80 % kam bo`lmasligi kerak.

Donning shakllanishitilishi va pishishi. Donning sut pishish fazasidan mum pishish fazasining boshlanishigacha bo`lgan davr donning tilishish fazasi deyiladi. Donning shakllanishi urug`lanishidan sut pishish fazasining boshlanishigacha davom yetadi va odatda 10-16 kun davom yetadi. Bu fazada yig`ishtirilib olinga donlar bemalol o`nib chiqadi.

Donning sut pishish fazasi. Shakllanishidan doning xamir holatigacha davom yetadi. Davomiyligi 10-18 kun. Faza oxirida don namligi 50 % yetadi. Bu davrda tuproq va havo qurg`oqchiligi hosilni keskin pasayishiga olib keladi. Donning xamir holati 5-6 kun davom etadi. Don namligi 50-40 % Quruq moddani to`planishi davom etadi xo`l massa esa kamayadi.

Mum pishishi fazasi. Donning xamir holatidan to`la pishishgacha davom yetadi. Davomiyligi 5-7 kunda namligi 40-20 % mum pishish fazasining boshlanishida oziq moddalarning donga kelishi to`xtaydi.

Boshqlash fazasidan donning pishishgacha o`rtacha sutkalik harorat yig`indisi 650-850 *C bo`lishi talab qilinadi. To`la pishish fazasidan o`simlik quriydi don qattiqlashadi o`zining haqiqiy rangiga kiradi namlik

14-17% tushadi. Kuzgi bug'doy o'simlik faol o'sish davri (vegetasiya) 140-160 kun davom etadi. Don hosil bo'lishiga namlik o'tmishdoshlar o'g'it va ekish muddatlari sezilarli tasir ko'rsatadi. erta va kechki muddatlarda ekilgan bug'doylarni pishishda farq katta bo'lmaydi va u asosan kechki muddatda ekilgan o'simliklarning bahor-yozgi vegetasiyasining qisqarishi hisobga sodir bo'ladi. Kuzgi bug'doyning o'suv davri qishni ham qo'shib hisoblanganda navning biologik hususiyatlari yekish muddatlari sug'orish ug'itlash va boshqa omillarga bog'liq holda 260 dan 200 kungacha o'zgaradi. Bahor-yoz davrida ob-havo salqin va yomg'irli bo'lsa hamma fazalarning davomiyligi o'zayadi donning pishish kechikadi aksincha quruq va issiq iqlim g'alla ekinlarini pishishini tezlashtiradi. Kuzgi bug'doy ekishdan-pishishgacha jami 1410-2100 * C da ijobiy harorat zarur bo'ladi. havo harorati 35-36 * C bo'lganda assimilyasiya jarayoni sekinlashadi 40*C oshganda quruq modda to'planishi to'xtaydi. Kuzgi g'alla ekinlarining rivojlanishi uchun zarur harorat yig'indisi turlicha hisoblanadi.

G.T.Seyaninov faol harorat yig'indisi tushunchasini kiritdi. Faol harorat yig'indisiga o'rtacha sutkalik haroratning 10 * C yo'qorisi kiradi. Bu ko'rsatkich qishloq xo'jalik ekinlarining issiq bilan taminlashini ko'rsatadi. Samarali harorat yig'indisi ham o'simlikning issiqlikka talabini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichda o'rtacha sutkalik haroratning o'simlikning rivojlanishi uchun zarur biologik minmumdan yo'qorisi olinadi. Biologik minmum har xil o'simlik uchun turlicha. Masalan kuzgi va bahorgi bug'doy uchun 5*C makkajo'xori uchun 10*C G'o'za uchun 13*C (janubiy navlar uchun 15*C) yo'qorisi samarali haroratga kiritiladi. Juda ko'p manbalarda kuzgi bug'doy unib chiqishidan pishishigacha bo'lgan davrda sutkalik ijobiy harorat yig'indisi olingan (A.I.Noatovskiy, 1990 Gibanov Y.V.Ivanov, 1983 va boshq). Kuzgi bug'doyni unib chiqishidan pishishgacha bo'lgan davrda 1400-1500*C faol harorat yig'indisi talab qilinadi. (10*C yuqori).

3.3. HOSILDORLIKNI ANIQLASH VA YIG'ISHTIRISH

Kuzgi g'alla ekinlarini o'rim-yig'im oldidan hosildorligini aniqlash daladan dioganallar bo'yicha har 1kv.m . o'n bog' namuna olinadi. Bog'lar yanchilib o'rtacha hosildorlik topiladi. Bunda yuzasi 1kv .m.bo'lgan ramkalardan foydalanish qo'lay. Dalada 1kv.m. mahsulotlarni poyalari soni va 1boshodan chiqqan donlar vazni bo'yicha hosildorlik aniqlanadi. Bunda 1kv.m.da 500dona boshogli poya bo'lib har bir boshodagi don vazni 1,5g.bo'lsa hosildorlik $500 \times 1,5 = 750$ g. Yoki gektoridan 75p.bo'ladi.

Hosildorlikni aniqlashda kombayinlar bilan bevosita o'rib-yanchib olish usuli ham qo'llaniladi. Bu usulda kombayinlar juyaklar bo'lib 1gektordagi hosilni o'rib-yanchib oladi. Bundan chiqqan don va somon hosili bo'yicha butun maydondan olinishi ko'tilgan hosildorligi aniqlanadi. Don yetishtirishni ko'paytirishni muhim manbalaridan biri hosilni yig'ishtirishda nobudgarchilikni oldini olishdir hosilni yig'ishtirish texnologiyasi bo'zilganda yetishtirilgan hosilni 10-20 % ayrim xollarda 30-50 % nobud bo'lishiga olib keladi. Yo'qotilgan hosil ko'pincha sug'orish o'g'itlash yangi navlarni joriy qilishdan olinadigan qo'shimcha hosildan ham ko'p bo'ladi. Donning nobud bo'lishi mexnik fiziologik shuningdek hosilni yig'shtiradigan mashinalarni ish bilan bog'liq sabablar tufayli yuz beradi. Mexanik nobud bo'lishga-donning tukilishi boshoglarning sinishi kiradi.

Fiziologik nobud bo'lishi donning mum pishishi davrida havoda nisbiy namlikni oshib ketishi bilan bog'liq. O'zbekiston sharaotida bunday hol kam ko'zatiladi.

Respublikamizda garmisel bo'ladigan mintaqalarda don vazni kamayib mayda bo'lib qiladi hosil kamayadi. Haroratni keskin ortishi va quruq bo'lishi ham hosildorlikni kamaytiradi. hosilni yig'ishtiradigan mashenalar ishi bilan bog'liq nobud bo'lishiga o'rish usuli va muddatni to'g'ri tanlash o'rish balandligini belgilash ish rejimini to'g'ri tanlash tashish quritish bilan bog'liq

jarayonlar kiradi. Kuzgi g'alla yekkini pishib ytilgan 8-12kun mobaynida urib yanchib olinsa nobudgarchilik kam buladi. Xosil pishib ytilganda kiyin14-15 kun utgach urilganda don nobudgarchiligi gekordan 3-4s.ni tashkil qiladi. Tuliq pishish fazasida donning 95doizda namlik 17-20% bulganda hosilna to`g`ridan –to`g`ri kombayinlar bilan yig`shtirshga kirishish mumkin.

Hosilni tabaqalashtirib (ikki fazada) o`rishga donlarning namlikni boshqda 35-40 % tushganda o`rimni boshlash mumkin. Bu usulda kuzgi g'alla ekinlarni donidagi namlik 20 % ga tushguncha o`rish davom yettiriladi. Kuzgi bug`doyda donning mum pishishi iyun oyining jazirama issig`iga to`g`ri keladi. Odatda mum pishish fazasi 5-6 kun davom yetadi. Ammo donning to`lishish fazasidan sug`orilgan maydonlarda mum pishish fazasi 10 kun va ham ortiq davom etishi mumkin. To`liq pishish fazasida biologik hosil va donning sifati 5-6 kun o`zgarmaydi turadi. Shuning uchun g'alla to`liq pishish fazasida 5-6 kun mobaynida o`rib yanchib olinish maqul. Keyin donlarni o`rilmasdan turib qolishi 1000 don vaznini natura massasini tegirmon va non yopish sifatlariga pasayishiga hosilni tukilib ketishiga olib keladi. Bunday donlar o`rib-yanchish paytida ko`p maydalanadi tovar donni chiqishini kamaytirad. G'alla o`rim-yig`imida to`g`ridan-to`g`ri kombayinlar bilan hosilni yig`ishtirish tabaqali (ikki fazali) usul bilan uyg`unlashtirib olib borilish maqul. Oldin jatkalar bilan dasta qilib o`rilib keyin podborshiklar bilan yig`ib yanchish serhosil baland bo`yli yotib qolishiga moil pishganda tez tukilib ketadigan ekinzorda o`tkaziladi. Dastavval jatkalar bilan keyin yanchib olinadigan maydonlarga o`rim tushadi keyin to`g`ridan –to`g`ri kobayinlar bilan hosilni yig`shtirishga kirishiladi. Arpa oldin pishganligi uchun uni urilish 8-10 kun erta boshlanadi va tugallanadi. Dastlab dalalardagi ariqlar tekislanadi maydonlar atrofi kombayinlar aylanib oladigan polosalar 8-10 m kenglikda o`ralib yong`inga qarshi haydab qo`yiladi. Polosalardan dalani chetidan urib-yanchib olingan donlar sifati past

kassalliklar va zararkunandalar bilan zararlangan bo'lishi mumkin. Ular alaxida to'kiladi. Chang va qattiq qorakuya bilan kassallangan maydonlari hosili ham alohida uralib alohida xirmonlarga tukiladi. Kuzgi g'alla ekinlari turli tuproq-iqlimi sharoitida va muddatlarda ekilgan turli agrotexnika qullanishi tufayli har xil muddatlarda pishib boshlaydi. Respublikamizda kuzgi g'allani tabaqalashtirib ikki fazali usulda yig'ishtirish kam tarqalgan. Hosilni yig'ishtirish asosan DON-1500, DON-1200, YNISIY-1200, SK-5 m Niva, SKD - 8, Sibiryak, Keys kombayinlarida to'g'ridan-to'g'ri o'rib yanchish yo'li bilan amalga oshiriladi. Hosilni yig'ishtirishni to'g'ri tashkil yetish g'allachilikda muhim omil hisoblanadi. Hosilni yig'ishtirishga tayorgarlik ko'rilyotganda kombayinlar sifatli va o'z vaqtida remont germtizasiya qilingan sozlgan yotib qolgan g'allani o'rishga moslashgan bo'lishi lozim. O'rim-yig'imni yaxshi o'tkazish uchun tegishli transport texnik xizmat ko'rsatuvchi mashinalar ajratilishi hamma mashenalar kombayinlar o't uchirgichlar uchun ishlovchilar boshqa jihozlar bilan taminlangan bo'lishi lozim. Hosilni yig'ishtirishda kombayinlardan guruh usulida foydalanish maqul. Texnikadan guruh usulida foydalanilganda o'rib yanchish ang'iz ekinlar uchun tuproqni tayorlash eng qo'llay muddatlarda o'tkaziladi. Hosil yig'ishtiriladigan agregatlar ishi ikki smenada tashkil qilinadi. Kombayin uroqlarining kesim balandligi 15-20 sm balandlikda o'tkaziladi. Hosilni yig'ishtirish boshlaganda don boshoqqa yaxshi birikkan poyalar kammustahkam bo'ladi. Bunday holda barabanlarni aylanish tezligi katta baraban va barabanosti oralig'i qisqa bo'ladi. Hosil yig'ishtirish o'rtasida va oxirida poyalar quriydi don va boshoqni birikishi kuchsizlanadi. Bunday hollarda baraban osti oralig'i kengaytirilib barabanlar tezligi kamaytiriladi. Sutka davomida poya va don namliki o'zgartirilib turadi. Shuning uchun yanchadigan moslama ish kuni davomida 3 marta sozlanadi. Kombayinlarni ishlatilish bir yo'nalishda ikkitadana ortiq agregat foydalanish maqsadga muvofiq emas. Bunda bir kombayin to'xtasa qolganlari xam

to`xtaydi. Bir kombayn bir kunda 15-10 marta to`xtaydi va shu tariqa g`alla yig`ishtirib olinadi.

3.4. Korxonani loyixalash rejasi.

Termiz tumani Mirishkor deqonlar tomonida yitishtiriladigan g'allani qayta ishlab xaliq uchun va un maxsulotlari bilan yil davomida ta'minlashi maqsadida loyihalonayotgan 40 ming tonna g'alla saqlash va dastlabki qayta ishlash korxonasida bajarilgan ishlarni ketma-ketligi quydagicha.

Yitishtirilgan hosilni yig`ishtirish

Transportlar yordamida g'allani keltirish.


Keltirilgan g'allani tortish.

Donlarni taxlil qilish va qabul qilish.

G'alla donlarini tozalash.


**Tozalangan donlarni saqlash uchun silestrlarga va vaqtinchalik
mayddonlarga uzatish.**

Ishchi minoralardan donlarni qayta tozalash.



3.5. DONNI SAQLAS’H OMBORXONALARNI TUZATISH VA JIXOZLASH.

Surxondaryo viloyati Termiz tumanida yitishtirilgan g’allalarni saqlash va qayta ishlash uchun 4 ming tonnalik g’allani saqlash va qayta ishlash korxonasini. Men menirali donni qayta ishlash korxonosi elivatorni loyhalashni maqul deb topdim va uning saqlash prinsipial sxemasi quydagicha bo`ladi.



DONI SAQLASHDAGI ASOSIY JARAYONLARI.

1. Avtomabellarda tilichkalarda yoki temir yo`l vagonlarda donni keltishirish.
2. Xo`jaliklardan keltirilgan donlarini avtotarozida tortish.
3. Keltirilgan donlarni sifat ko`rsatkichlarini aniqlash(taxlilxona).
4. G`alla donllarini tozalash (havo spartir tosh ajratish magetnili tozalagich donlarni tozalash qurilmasi).
5. Tozalangan donlarni slistorlarga uzatish (lentali transportyorlar yordamida).
6. Sepebrlardan lentali transportyorlar yordamida ishchi menirallarga uzatish.
7. Ishchi menirollardan noriyalar yordamida elevatorning yuqori qisimga uzatish (shnikli transportyorlar)
8. Elivatorning yuqori qavatagi separatorlar yordamida BLS-100 rusimli donni elash.
9. Elangan don xossasini saqlashga uzatish.
10. Donni saqlash.
11. Donni qayta ishlashga uzatish.

Ketirishi

tortish

sifat ko`rsatgichlarni aniqlash

Donlarni tozalash

Donlarni sestorlarga uzatish

Ishchi menirallarga uzatish

Noriylar yordamida elivatorning 8-qavatga kutarish


Donni elash

Saqlashga uzatish


Saqlash

Donni qayta ishlashga uzatish

Tonalangan texnologik sexemani tanlash va asoslash.



Termiz tumanida har yili g'alladan mo'l hosil yetishtiriladi va bu hosillar „KEYS’’rusmli konbayinlar yordamida yig'ilib avtotransport va tilichkalar yordamida korxonaga keltirildi avtotransportlar rusimiga qarab 4 tonnadan 10 tonagach g'alla oladilar va korxonaga yuboriladi ketirilga g'alla donlarini avtotarozida tortib tahlilxona taxlilchilar tamonidan sifat ko'rsatgichlarni aniqlab g'alla tozalash qurilmasiga to'kish uchun yuborildi ZAV-40 rusimli rasim-2 don tozalash qurilmasida quydagilar mavjud.



1. Don to'kiladigan joy.
2. Reziv don saqlanadigan bunkir.
3. ZVS-20 markali shamol keltiradigan mashina.
4. Va 5. 2 N 3-20 markali ikki qismli transportyor .
5. Pnevmatik separator.
6. Tozalagich blok.
7. Toza don saqlanadiga blok.
8. Aralashmali donlar (a) aralashmagan donlar saqlanadiga bunkir.

Donni tozalagich saralagich mashinalarini ishlashi quydagicha bo'ldi:

Barcha don tozalash saqlash mashina mexanizatsiyalarining ishlash qonuniyati urug'larning shakliga va katta kichikligiga asoslangan bo'lib donni shamol va g'alvirlar yordamida saralovchi don hamda boshqa urug'larni uzunligi bo'yicha saralovchi trinirlar g'alvirlar shamol va trigirlar yordamida tozalaydigan va saralaydigan mashinalarga bo'linadi.

Donni shamol va g'alvir yordami turli aralashmalardan tozalaydigan va saralaydigan mashinalar don shopirgich saralagichlardan amalga oshiriladi amalda VS-2, VS-8 va VS-10 usuli don shopirgich saralagich mashinalari qo'llanadi bu jihozlarni ishlash qonuniyatlari bir xil bo'lib ular bir birdan ish unumdorligi g'alvirlar soni, tuzilishi va o'lchamlari bilan farqlanadi don aralashmasi bo'nkirdan surma qopqoqli darcha orqali mashinaning tepa qismidagi birinchi g'alvirga tushadi.

Ventelatoridan chiqa yodgan havo oqimi g'alvirga tushayotgan dondan yengil arashmalarini mashina tashqarisiga uchirib chiqarad. Yirik aralashmalarini (boshoq, soman, kesak, temir, tosh parchalari) esa yuqoridagi g'alvirdan tranovlar orqali mashinaning ikki tomoniga tushadi qolgan don

g'alvir teshiklardan o'tib yonma-yon joylashgan pastki g'alvirlarga tukiladi. Butun don g'alvir yuzasida kelib ikkinchi g'alvir tomon siljiydi bu g'alvirdan don ikki soatga ajraladi: ikkinchi sortga munosib donlar g'alvir tishiklardan o'tib mashina ostiga tukiladi, birichi sort esa g'alvir yuzasida qolib boshqa tomonga tushadi.

